

## DAVOMATI VA O'ZLASHTIRISHI PAST O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi  
maxsus fan o'qituvchisi  
Xoliqova Zebiniso Rustamovna*

**Annotasiya:** *davomati va o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash xaqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lif, tarbiya, o'quvchi, bilim, ko'nikma, malaka, interfaol yondashuv, faollikni oshirish.*

Hozirgi kunda dars o'tish jarayoni uchun metodlar va pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirib borilmoqda. Buni dars jarayonida muhim bo'lgan omillar ta'minlab beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalari davrimizda ta'lifning eng muhim sifatlari uchun sharoyitlar, imkoniyatlar juda xam ko'pdir. O'qituvchi dars mashg'ulotlarida maqsadga erishishda o'zining mahorati, qo'llanilgan dars uslubi, o'quv xonasining jihozlanganligi albatta o'quvchini ko'nikma olishida muhim ro'l hisoblanadi. Dars mashg'uloti maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lif jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriylar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriylar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunning zamonaviy o'qituvchisi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lif usullarini yaxshi bilishi kerak.

Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qql va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak deb ta'kidlaydi hurmatli yurtbosimiz o'z nutqlarida. Ushbu yuqoridaq prezidentimiz ta'kidlaganidek, bugungi kunning o'qituvchisi xar tomonlama yetuk, bilim saviyaga ega bo'lgan, dunyo qarashi keng bo'lgan motivator xam bo'lishi lozim.

Hozirda kunda ta'lif tizimida o'quvchilar amaliy ko'nikmalarni olishlarida muommolar kamroqday, lekin davomati past va bo'sh o'zlashtiruvchi uy ta'lifida o'qiyotgan o'quvchilar uchun muommolar bor desak adashmaymiz. Bu muommolarni bartaraf etishda hozirgi kunda qilinayotgan ishlar zamirida maktablarda inklyuziv ta'lif joriy qilinishi, professor-o'qituvchilarga qo' oliy ta'lif tizimlarida imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda ilmiy ishlarni ko'payganini guvohi bo'lyapmiz.

Tadqiqotlar, kuzatishlar asosida ayta olamizki, boshlang'ich ta'lif davrida o'quvchida o'yin faoliyatining o'rnnini o'qish faoliyati egallaydi. O'qib-o'rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo'lib qoladi. O'qish jarayonida u darsliklarini va o'quv qurollarini saranjom

saqlash, o'z vaqtida o'rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyg'a berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko'nikmalarni o'zlashtiradi. O'quvchi tobora mas'uliyatli bo'lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o'stiradi, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, sezgilarini va irodasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo'ladi. O'zlashtirishi past o'quvchi xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchida mustahkamlash yaxshi bo'lsa, ta'lim jarayonida o'quv materialining ko'p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o'z-o'zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o'quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri va fikrashi o'sadi. Ular o'zlari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar. Mantiqiy tafakkurning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlaydi.

Uy-ta'limidagi o'quvchilarni xar toifalari mavjud. Masalan ko'zi zaif o'quvchi, tayanch xarakatida nuqsoni bor va boshqa turdag'i o'quvchilar mavjud. Ushbu toifadagi o'quvchilar bilan xam psixologik, motivator, kreyativ yondashib ishlash albattra maqsadga muofiq bo'ladi. Ularda qiziquvchanlik, intilish kuchli lekin fikrash doirasi kamroq bo'ladi. Avvalo fanga qiziqtirishda motivatsion, inovatsion tushunchalar dars mashg'ulotlari olib borilsa fanga, darsga nisbatan qiziqish yuzaga keladi. Ular ta'lim olishni burch ekanligini anglab yetadilar.

Dars vaqtida o'quvchi faoliyatiga qo'yilgan yuqori baho o'quvchilarda ruhiy tetiklik, shodlik, iftixor kabi hissiy kechinmalarni tug'diradi. Ammo o'quvchilar orasida fanlardan orqada qolish, o'zlashtirishi past baholanadiganlari ham uchrab turadi. Ushbu o'quvchilar bilan har bir sinf o'qituvchisi alohida ishlarni olib borishi va ulardagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, imkon qadar bunga yechim topishi zarur. Shunday ekan ta'lim o'qituvchisi har tomonlama yetuk, o'tkir diplomat, o'z kasbini ustasi, intellekutal salohiyatga ega shaxs bo'lishi shart.

Har bir sinfda dars berish jarayonida fanlarni o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarga duch kelamiz. Bu o'quvchilar bilan ishlash o'qituvchidan yuqori malaka talab qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi yangi metodikalari qo'llashi ,past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning faolligini oshirishi va bu orqali past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning boshqa tengdoshlari qatoriga yetib olishini ta'minlash lozim. Shundagina har bir o'qituvchisi o'z faoliyatini to'g'ri yo'iga qo'ya olgan va har bir o'quvchi bilan individual ishlash jarayonini amalga oshiradi olgan hisoblanadi.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli bajarishiga ishonch uyg'otish lozim.

Mustaqil ish turlari, avvalo, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'la "eslab qolib" bajarishdir. Bunda

bajariladigan ishning maqsadini tushungan(tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir.

Kichik maktab yoshi davrida faoliyatni va xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Bolalar nimani yaxshi ko'rishadi va nimani istashadi?" degan savolga S.T.Shatskiy shunday javob beradi:

Bolalarda til topishish instinkti kuchli rivojlangan, ular bir-birlari bilan tezda tanishib oladilar - o'yinlar, hikoyalar, o'zaro gap sotish, lofchilik kabilalar ana shunday instinkning belgilariadir.

Bolalar tabiatan mohir tadqiqotchi. Ulardagi tez qo'zg'aluvchanlik, oxiri ko'rinnmaydigan savollar, hamma narsaga tegib ko'rish, ushlab ko'rish, tatib ko'rishga intilish sababi ana shunda.

Bolalar o'zini ko'rsatib turgisi keladi, o'zi haqida, o'z taassurotlari haqida gapirgisi, o'rtoqlashgisi keladi. O'z menligini tez-tez namoyish etib turishi ana shundan. Uning fantaziyalari va tasavvurlari boy bo'ladi - bu bolalar ijodkorligi instinktidir.

Bolalar hech narsadan bir narsa yaratishni, qandaydir g'ayrioddiy narsalarni to'qib chiqarishni yaxshi ko'rishadi.

O'quvchilarda xarakterning shakllanishida taqlidchanlik instinkti katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida bo'sh o'zlashtirishni vujudga keltiruvchi omillar, o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish ta'lim jarayonida o'quvchi o'zlashtirmasligining oldini olishga yo'naltirilgan chora -tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi. bo'sh o'zlashtirishning oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimi har bir o'quvchi real o'quv imkoniyatlarining barcha asosiy tarkibiy qismlarini kompleks rivojlantirishga, ya'ni shaxsning intellektual, irodaviy, hissiy sohalarini bir vaqtida rivojlantirishga, uning ta'lim va tarbiyasini ta'minlash, o'qishga va jamoaga ijobiy munosabatini rivojlantirish, uning ishga qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quvchi real o'quv imkoniyatlaridan birining shakllanishi muhimligini yetarlicha baholamaslik, bu tizimning yaxlitligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bo'sh o'zlashtirishning muvafaqqiyatli oldini olishga olib kelmaydi.

O'quvchilarni zo'riqish va turli psixologik ta'sirlardan asrash, qiziqarli o'yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quvchilarni ziyraklik va chaqqonlikka hamda fikrini to'g'ri va aniq ifoda etishga undovchi o'yinlardan foydalanishi samarali natija beradi. Masalan, "G'oyib bo'lganini top" o'yinida turli geometrik shakllar yozuv taxtasi yoki magnitli doskaga tartibsiz joylashtiriladi.O'quvchilar shakllarni ko'rib bo'lgach, o'qituvchi "Tun", deydi. Bolalar ko'zini yumadi. O'qituvchi shakllardan bir nechtasini olib, yashiradi va "Kun", deydi. O'quvchilar ko'zini ochib, qaysi shakllar g'oyib bo'lganini aytishi kerak.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash o'qituvchidan alohida sabot va mas'uliyatni talab etadi. Shu bois bu toifa bolalar bilan shug'ullanish uchun,

avvalo, yakkama-yakka suhbat o'tkazib, ularning qiziqishlarini aniqlash lozim. Maxsus jurnal tutilib, bolalarning o'zlashtirishini muntazam monitoring qilib borilishi, o'quvchilarga qynalayotgan fanidan alohida mashg'ulotlar daftari tuttirish kabi usullar ham samarali hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilardagi ijobiy o'zgarishlar rag'batlantirilishi muhim.

Bo'sh o'zlashtiruvchilarning faolligini oshirish uchun ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda nutqini rivojlantirish kerak. Bunda turli ertaklardan foydalanish mumkin.

O'qituvchi dars o'tishda boshqa ko'plab usullardan ham foydalanishi lozim. Eng muhimi, ular samara berishi.

Shuningdek, o'zlashtirishi past o'quvchilar uchun dars mashg'ulotini to'liq tushunish uchun innovotsion usullarni soddalashtirish va ularni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali nafaqat o'quvchining o'qish savodxonligi ortadi, shu bilan birgalikda dunyoqarashi ham kengayadi. Ayniqsa, boshlangich o'rgatishda dastlab o'qish darsligiga etibor berish kerak va unda juda ham ko'plab hikoyalalar beriladi.

O'qish darsida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagicha xotiranoma juda foydalidir.

1. Hikoyani o'qi.
2. Uni qismlarga ajrat.
3. Har bir qismdagi asosiy masalalarni top.
4. Har bir qismga sarlavhalar qo'y.
5. Qismlarning sarlavhalaridan reja tuz.

O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o'quvchilami ishga. ijodiy yondashishga va nazariy bilimlami amalda qo'llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun o'quvchilaming bilimlarini ulaming dastlabki tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak. Shuningdek, bu materiallar ko'p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ulaming har biri o'ziga xos bilishga doir va mantiqiy topshiriq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'rganish mashqlarining ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar ongida yangi bog'lanishlar hosil bo'lishiga va shunga ko'ra materialning yaxshiroq o'zlashtirilisiga yordam beradi.

Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar davlat ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim masala hisoblanadi. Chunki o'sha o'quvchi an'anaviy darslarda, yoki har doim jamoa bo'lib o'tkaziladigan darslarda ta'limni o'ziga qabul qila olmagan. Shunday ekan past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan dastlab barcha metodikalari individual qo'llab, keyin ularni jamoaviy metodikalar va doimgidek ta'lim-tarbiyada jarayoniga jalb qilish kerak.

Dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o'qituvchilar mahoratini oshirish avvalo ularning maxsus kasbiy salohiyatiga bogliq. Innovatsion usullardan foydalanish o'qtiladigan fanlarning soatini inobatga olgan holda ular bilimini oshirish muammosini ham har hil yo'llar bilan hal qilish zarur. Ammo, klaster metodi mahorati shunday universal komponentlarni o'z ichiga qamrab oladiki, ushbu

komponentlardan turli o'quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu yo'nalishda ular tez vaqtida yaxshi natijaga erishishlari mumkin.

Salohiyat aniq fan yo'nalishida aniq ishni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga hos hususiyatni bildiradi. Salohiyat tushunchasi o'z ichiga maxsus bilimlar, o'ziga hos ko'nikmalar, fikrlash usullarini va o'z harakatlariga javobgarlikni tushunishni qamrab oladi. Yana shu ham ma'lumki, o'qituvchilar o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan, o'zi qilayotgan ishidan qoniqish hosil qilishi ham juda katta ahamiyatga egadir.

FSMU metodini amalda qo'llash:

O'qituvchi quyidagiga o'xshagan vazifalar yozilgan tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab, mashg'ulot vaqtida kichik guruhlarga yoki alohida o'quvchilarga tarqatadi.

1-vazifa. "Biznes asoslari fanini xozirgi kundagi o'rni" mavzusi yuzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

F-\_\_\_\_\_

S-\_\_\_\_\_

M-\_\_\_\_\_

U-\_\_\_\_\_

2-vazifa. "Biznes asoslari fanini tadbirkorlikdagi o'rni" mavzusi uzasidan fikrlaringizni FSMU metodi bo'yicha bayon eting.

F-\_\_\_\_\_

S-\_\_\_\_\_

M-\_\_\_\_\_

U-\_\_\_\_\_

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtini belgilab e'lon qiladi. Vazifalarni bajarish vaqtida umumiyo rahbarlikni amalga oshiradi. O'quvchilar o'zlariga berilgan vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, ularning umumiyo muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajanganlar rag'batlantiriladi.

Xulosa qilib aystsak, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash jarayonini tashkil etishda zamonaviy ta'lim-tarbiyada texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yangi metodikalar fan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim texnologiyalarini ham bu jarayon bilan uzviy ravishda bog'lab borishimiz kerak deb o'ylayman. Biz shu orqali pedagogik faoliyatga va o'quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirishga to'g'ri yondashgan bo'lamic va passiv o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompitensiyalarini o'z ornida shakllantirishga erishamiz.

## FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
2. Suvonov O.va boshqalar. «Pedagogik texnologiyalarni qo'llash davr taqozosi». «Xalq ta'limi», 2004 yil, № 5.
- 3 Musurmonov A. "Ta'lim-tarbiyada xalq og'zaki ijodidan foydalanish". T.: O'qituvchi, 1993.
4. Mavlonova. A.R."Umumiy pedagogika" .166-bet.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zlashtirishi-past-o-quvchilar-bilan-ishlash>
6. Горовик, А. А., Турсунов, Х. Х. (2021) Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере scratch. UNIVERSUM, 8(77), 27-30.
- 7.Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriyetishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: “Fan” 2017
- 8.Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.
- 9.Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
- 10.Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O 'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
- 11..Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
12. Minamatov, Y.E.O.G.L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 441-445.
- 13.Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.